

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

O‘ZBEKISTONDA BOLSHEVIKLARNING SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI KADRLARGA Hujumi

Jalilov Alisher Xudoyberdiyevich

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

jalilov-1982@bk.ru

+99890 235-01-17

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekistonda bolsheviklarning sud-huquq sohasidagi kadrlarga hujumi masalalari o‘rganilgan. O‘zbek siyosiy elitasining sud-huquq tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar bolsheviklarning turli-tuman bo‘htonlari bilan ayblanib, boshqaruvdan chetlashtirilganligi, ularga “qosimovchilik”, “badriddinovchilik” kabi soxta ayblar qo‘yilib, turli “aksilinqolobiy” harakatlar o‘ylab topilganligi maqolada tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “aksilinqolobiy” tashkilotlar, millatchilik, “bosmachilik”, panislomchilik, kommunistik partiya, siyosiy elita, shovinizm, milliy siyosat, totalitar, sovet, avtonomiya, partiya, bolshevik.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы нападения большевиков на работников судебной системы Узбекистана. В статье анализируется тот факт, что кадры узбекской политической элиты, работавшие в судебной системе, были обвинены большевиками в различных клеветах и отстранены от власти, против них были выдвинуты ложные обвинения типа «касимовщины» и «бадриддинизма», придуманы различные «контрреволюционные» действия.

Ключевые слова: «контрреволюционные» организации, национализм, «басмачество», панисламизм, коммунистическая партия, политическая элита, шовинизм, национальная политика, тоталитарный, советский, автономия, партия, большевик.

Abstract: the article examines the issues of attacks by the Bolsheviks on employees of the judicial system of Uzbekistan. The article analyzes the fact that the cadres of the Uzbek political elite who worked in the judicial system were accused by the Bolsheviks of various slanders and removed from power, false accusations such as “Kasimovism” and “Badriddinism” were brought against them, and various “counter-revolutionary” actions were invented.

Key words: “counter-revolutionary” organizations, nationalism, “Basmachi”, pan-Islamism, communist party, political elite, chauvinism, national policy, totalitarian, Soviet, autonomy, party, Bolshevik.

KIRISH.

Bolsheviklar uzoq vaqt yerli aholidan yetishib chiqqan mutaxassis kadrlarga ishonmaslik va ular faoliyatiga shubha bilan qarashni davom ettirib keldilar. O‘zbek siyosiy elitasining sud-huquq tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar bolsheviklarning turli-tuman bo‘htonlari bilan ayblanib, boshqaruvdan chetlashtirildi. Ularga “qosimovchilik”, “badriddinovchilik” kabi soxta ayblar qo‘yilib, turli “aksilinqolobiy” harakatlar o‘ylab topildi.

1929-yilda O‘zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa’dulla Qosimov “g‘ayripartiyaviy” guruh tuzishda ayblanib, sheriklari Sharipov, Olimov, Musabekovlar bilan birgalikda qamoqqa olingan. Sa’dulla Qosimov “aksilinqilobchilar” bilan birgalikda “millatchilar” partiyasini tuzish g‘oyasini ilgari surganlikda, bosh prokuror Sharipov “panislomchilikda”, tarix o‘qituvchisi Olimov “millatchilik” va “bosmachilikda” hamda Musabekov diniy qarashlari tufayli xalq dushmani deb topilgan va otishga hukm etilgan. Bolsheviklarning ta’kidlashicha “aksilinqilobiy” yashirin tashkilot – “Milliy ittihad” va “Milliy istiqlol”ning dasturi “qosimovchilik”ning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan edi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tadqiqotda tarixiy metodlar tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

NATIJALAR.

Moskva 1930-yil 18–21-iyul kunlari Markaziy kontrol komissiyasi prezidiumi VKKI kolllegiyasini birlashgan yig‘ilishida Solts O‘rta Osiyo jumhuriyatlari sud-tergov idoralarida o‘tkazilgan tekshirish natijalari to‘g‘risida ma’ruza qiladi. U O‘rta Osiyoga borib sud va tergov ishlari bilan tanishgani, sud va tergov ishlarida sansolarlik borligini keskin tanqid qiladi [2].

O‘zbekiston Kompartiyasi mas’ul kotibi Akmal Ikromov 1930-yil 11-sentyabr kuni Samarqand shahrida partiya faollari bilan bo‘lgan yig‘ilishda “Qosimovchilar oqibati va aksilinqilobiy, millatchilik tashkilotlarining qo‘poruvchilik faoliyati to‘g‘risida” ma’ruza [3] qiladi. Mazkur ma’ruzada jumladan shunday deyiladi: “Qosimovchilar proletar inqilobdan omon qolgan kapitalizmning qoldiqlarini muqarrar o‘lim oldiga olib bordi. Sotsializm rivojiga putur yetkazmoqchi bo‘ldi. Zararkunandalar va aksilinqilobchi tashkilotlar haqida bir qator faktlarning ochilishi yana bir bor sotsializmning g‘alabasi va kapitalizmning mag‘lubiyatiga ishora qilmoqda” [4].

Shundan so‘ng yig‘ilish ishtirokchilari partiya ichida uy qurib olgan boshqa millatchilik tashkilotlarini fosh etish, milliy burjuaziya agentlariga qarshi kurashish haqida fikr bildiradilar hamda proletar inqilobga biron kuch hujum qila olmasligini ta’kidlaganlar [5].

Millatchi, aksilinqilobchilarni fosh etishda partiya tashkilotlari ichida qator kamchiliklar aytib o‘tilgan. Masalan, tanqidning yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi, ayniqsa o‘z-o‘zini tanqid qilish, tanqidning ziyolilar orasida xususan, o‘qituvchilar va talabalar orasida zaif ekanligi, sud organlarida faoliyat ko‘rsatgan kadrlarning bo‘linishi, partiya tashkilotlarining hushyorsizligi ko‘rsatilgan [6].

Partiya faollari mazkur yig‘ilishda millatchi tashkilotlarning aksilinqilobiy ishlarini ochib bergan proletar diktatura organlariga mamnuniyat bildirganlar. Shuningdek, O‘zbekiston Kompartiyasini yanada bolsheviklashtirish, aksilinqilobiy trotskiychilik, shovinizm va mahalliy millatchilikka qarshi kurashda partiya faolligi so‘ralgan [7].

“Qosimovchilik” ishi yuzasidan Maorif xalq komissarligi ham tizimdagi bir qator vazifalarni belgilagan. Bular millatchi unsurlar “qosimovchilik” va uning qoldiqlariga qarshi o‘t ochish, sotsializm qurish jabhasida sinfiy va bolshevik qat’iyatini qo‘ldan bermaslik, sog‘lom proletar kadrlarni tayyorlash hamda VKP (b) ning 16-partiya qurultoyi qaror va direktivlarini bolshevikcha surati bilan amalga oshirish [8].

Bolsheviklar sud-huquq tizimidagi milliy manfaatlar yo‘lida faoliyat yuritayotgan ko‘plab kadrlarni “qosimovchilik” ning qoldig‘i deb atadilar va ular ustidan ham sud jarayonlarini tashkil etdilar. Qosimovchilikda ayblangan Eshonxo‘ja Mo‘minxo‘jaev, Mirkomil Mirsharipov, To‘xtaqori Tojiev, Asrorxon Sultonxo‘jaev, Azizqori Obidqoriev, Mo‘minxo‘jaev, Mirkomil Mirsharipov, Nazar Abduqodirov, Muqonbek Kalonbekov, Komiljon Mahkamboev, Toji Isomammedov va Ortiq Abduqodirovlar ustidan ham sud-tergov ishlari olib borilgan.

Bosh aybdor sifatida Eshonxo‘ja Mo‘minxo‘jaev ko‘rsatiladi. U 1919-yili Toshkentda bo‘lib o‘tgan Osipov g‘alayoni (Osipov fitnasi yoki Yanvar voqeasi) vaqtida oqlar tomonidan turib, bolsheviklarga qarshi kurashganligi, 1923–1924 yillarda jinoyat qidiruv bo‘limi boshlig‘i bo‘lib turgan chog‘ida Buzrukxo‘ja bandasini tashkil etgani va shu jinoiy guruhni davlatning qurol-yaroqlari bilan ta‘min qilib kelganligi aybi qo‘yiladi [9].

Ayblanuvchi Eshonxo‘ja Mo‘minxo‘jaev sudda “Osipovning malayi, bosmachilarning tashkilotchisi, boylar-savdogarlarning homiysi deganlarning hammasi yolg‘onchi, hammasi vijdotsiz kishilar” deb gapiradi. Inqilobga davr attorlik do‘koni ochib savdo qilgani, ko‘mir furushlik bilan shug‘ullangani, Qosimovni ziyofat bilan siylagani, mulkdor Muqanbek va uning o‘g‘li Eshonbek bilan yaqin munosabatda bo‘lgani va tegirmondan 6 pud un olganiga iqror bo‘ladi [10].

Ikkinchi aybdor – Mirkomil Mirsharipov ham aksilinqilobiy harakat a‘zosi ekani, u “Yanvar fojeasi” vaqtida Osipovning topshirig‘i bo‘yicha Yangiyo‘l rayonining Chinoz qishlog‘iga borib fitna qo‘zgatgani, Chinozdagi bolsheviklarni va Chinoz ChK sining raisi Chinnibek Qarsakovni qamoqqa olib, ChKning qurol-yarog‘larini talon-taroj qilgani, Chinozning boylari va eski amaldorlarini to‘plab, katta bir miting yasagani, oq bayroq ko‘targan holda minbarga chiqib, “iflos bolsheviklarning hokimiyati to‘zdirilib, o‘rniga o‘zimizning hokimiyatimiz turg‘uzildi, uchragan bolshevikni tutib o‘ldiraveringlar” deb nutq so‘zlagani kabi soxta ayblar qo‘yiladi [11].

Sud 23 kunlik ishi davomida 155 ta guvoh va 10 ta aybdorlarni eshitadi. Ushbu sudda bosh guvoh sifatida Haqqul Husanboyev degan kimsa ko‘plab kadrlarga qarshi ko‘rsatma beradi. Uning rasmi Qizil O‘zbekiston gazetasiga chiqarib, sovet davlati va partiya oldida katta ish qilgani ta‘kidlanadi [12].

Ayblanuvchi To‘xtaqori Tojiyev esa, sho‘ro apparatining adliya mahkamasiga ishga kelgandan boshlab, to sud kursisiga o‘tirganicha proletar davlatning manfaatiga zid bo‘lgan harakatlar bilan shug‘ullangani, Qosimov bilan yaqin munosabatda bo‘lib, ular bilan birga boylarning mehmonxonalariga ziyofatlar qilgani, Yangiyo‘l rayonida Chinoz qishlog‘idagi mushtumzo‘r Abdulla Qori, Rasuljon boyvachchalar bilan birgalikda chet unsurlar bilan aloqa bog‘lab, sho‘ro hukumatiga qarshi bo‘lganlik aybi qo‘yiladi [13].

Davlat prokurori Yusuf Matniyozov “qosimovchilik”da ayblanuvchilarni 1919-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Osipov fitnasidagi roli haqida gapirib shunday deydi: “Bir oylik tekshirish bizga Osipov va uning bandalarini sho‘ro hukumatini “to‘zg‘itish” yo‘lida uzoq vaqt tayyorgarlik ko‘rganini aniqlab berdi. Osipov 1919-yil Marvni egallashga harakat qilayotgan ingliz mustamlakachiigi, Orenburgni ishg‘ol etgan Kolchak bandalari va Farg‘ona vodiysida bosh ko‘targan “bosmachilar to‘dalari” bilan mustahkam aloqa bog‘lab turgan shtablar tuzib, bu shtablarning bosh qismini Toshkentda uning yordamchi uchastkalarini Sirdaryo, Chinoz va Piskent rayonlarida tuzib, qo‘zg‘olon ko‘targan” [14].

MUHOKAMA.

Sud jarayonida prokuror 3 kunlik nutqining xulosa qismida aybdorlarga mana shunday jazo berilishini talab qiladi. Eshonxo‘ja Mo‘minxo‘jayev, Mirkomil Mirsharipov, Azizqori Obidqoriyev, Nazar Abduqodirov va Muqanbek Abdurahmonbekovlarning jinoyatlari jazo qonunlarining 58 va 63-moddalari bilan tasdiqlangani hamda bu kishilarning sho‘ro jamoatchiligi uchun xavfli bo‘lganligini nazarda tutib, bularga jazo chorasining eng yuqori darajasini qo‘llash ya‘ni – otib o‘ldirishni talab qiladi. To‘xtaqori Tojiyev, Komilbek Mahkambekov, Toji Isomammedov va Ortiq Abduqodirovlarga 8 yil qamoq jazosi ham Sultonxonov o‘z ayblarini bo‘yniga olgani, ishchilardan bo‘lgani uchun bunga shartli jazo berilishini so‘raydi [15].

Qosimovchilarning qoldig‘i sifatida ayblanayotganlar sudi 1931-yilning 11-fevralida ochilib, 12-mart kuni tugaydi. O‘zbekiston oliy sudining a‘zosi va sayyor hay‘atining raisi Abram Abdurahmonov sud hukmini e‘lon etib, aybdorlarning jazo darajalarini mana shunday belgilaganligini bayon qiladi:

Aybdorlardan bo‘lgan Komilbek Mahkambekov, Toji Isomammedov va Ortiq Abduqodirovlarning jinoyatlari isbot etilmaganligi uchun ular jazodan ozod etiladilar. Asrorxon Sultonxonovning jinoyatlari to‘la isbot etilgan bo‘lsa ham, o‘z aybiga iqrar bo‘lganini va ishchilardan bo‘lganini, pastdan yuqori ko‘tarilgan bir ishchi ekanligini nazarda tutib, ikki yil mas‘ul vazifalardan mahrum etishga va o‘ziga “hayfsan” e‘lon qilishga hukm etildi. To‘xtaqori Tojiyev umumiy tartib bilan 5 yil qamoq muddati 3 yilu 4 oyga keltiriladi. Azizqori Obidqoriyev qattiq o‘rnatilgan holda 6 yil qamoqqa yotishga va davlat oqchasidan isrof qilgan 1530 so‘mni mol-mulkini sotirib, undirib olishga hukm qilinadi. Eshonxo‘ja Mo‘minxo‘jayev va Mirkomil Mirsharipov aksil inqilobiy jinoyatlari isbot qilingani uchun jazo qonunlarining 58 moddasiga muvofiq otib o‘ldirishga hukm qilinadi. Ammo Mirkomil Mirsharipovning kambag‘al oiladan bo‘lganligi va aksilinqilobiy harakatda qatnashgan vaqtida 19 yoshda

bo‘lganligini nazarda tutib, unig o‘lim jazosi sho‘rolar ittifoqining uzoq lagerlaridan birida 10 yil qamalish jazosi bilan almashtiriladi hamda butun mol-mulki musodara qilinadigan bo‘ladi [16].

Bolsheviklar tomonidan ayblanayotgan ikkinchi “aksilinqilobiy” guruh bu “badriddinovchilik” deb nomlangan. Oliy sudning raisi Sa’dulla Qosimovning yaqin yo‘ldoshi sifatida ayblangan Shamsiddin Badriddinov ham sud-huquq tizimida ishlagan. Sh.Badriddinovga harbiy omborlarni talash, bir o‘q xarajat qilgan bo‘lsa, o‘n o‘q xarajat qilganlik to‘g‘risida qalbaki aktlar yozganlik, zapas o‘q to‘plab, ularni bosmachilarga yetkazganlik aybi qo‘yilgan. Guvoh Ali Xo‘jayevning ko‘rsatishi bo‘yicha faqat bitta Andijon turmasidan bosmachilarga 15 ming dona qurol (vintovka) jo‘natilgan [17].

Matbuotda yoritilgan xabarlarga ko‘ra Sh.Badriddinovga yana jinoiy ishlarni sodir etganlik aybi qo‘yilgan. Jumladan, u sudda raislik qilgan vaqtida sovet muassasalarini 192 million so‘mga talagan kimsalar ishida hech bir jinoiy ish yo‘qligini, faqat fuqarorlik muammo borligini, bittasi ikkinchisidan qarzga olganini, ikkinchisi shuni talab qilganini, birinchisi buni to‘lamaganligini ko‘rsatgan va ishonch qog‘ozi berib, ishni tomomlash kerakligini aytib qaror chiqaradi. Badriddinovning baxtiga qarshi, uning apparatida qizil ishchi Nijegorodov o‘tiradi va bu ishni partiya qo‘mitasiga etkazib shovqin ko‘taradi. Partiya tashkiloti Badriddinovni o‘zining hukmidan norozilik bildirishga va shuning bilan o‘z xatosini butun kishilar oldida iqror qilishga majbur etadi. CHust, Pop va Beshariq rayonlarida sinfiy dushmanlar 300 mln so‘mni talaganlar. Badriddinov va uning shaykalari mana shu ish tevaragida 6 kg qog‘oz yozadilar va hech bir kishini javobgarlikka tortmaydilar [18].

Davlat qoralovchisi Katanyan Sh.Badriddinovni Anvar poshoning vasiyatlarini bajarish uchun partiyaga kirgani va sho‘ro apparatini ichkaridan yemirish uchun sho‘ro apparatiga, sud-tergov uchastkalarining eng javobgarli uchastkasiga kirib olganligi, josuslik, ig‘vogarlik rolini bajarganligi hamda davlatga xiyonat qilganligi aybi bilan uni oliy jazo o‘limga hukm chiqarishni talab qilgan.

SSSR Oliy sudining jinoyat sud kollegiyasi, yuqoridagi aytilganlarga asoslanib, Badriddinovni, Xo‘jayevni, Raxmonovni, Musaxanovni, Ahmadxonovni O‘zbekiston jinoyat qonunlari to‘plamining 63-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlarda, mazkur to‘plamning 143-moddasi va 140-moddasining 1-qisida ko‘rsatilgan jinoyatlarda aybli deb topadi va hukm qiladi:

1) Sa’dixanov Muhiddin 143-moddaga binoan va 140-moddaning 1-qismidagi jazoga muvofiq 2 yilga ozodlikdan mahrum qilinsin.

2) Ibrohimjon Musaxanov 63-moddaga binoan 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinsin.

3) Muhammadxon Xo‘jayev 63-moddaga binoan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinsin.

4) Abdurmon Rahmonov 63-moddaga binoan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinsin.

5) Mahmudxon Ahmedxonov 63-moddaga binoan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinsin.

6) Shamsiddin Aliyevich Badriddinov 63-moddaga binoan oliy jazoga otilishga hukm qilinsin [19].

Sudda raislik qiluvchi S. Antonov O‘zbekiston jumhuriyatidagi sotsializm qurilishini, undagi ishchi, kolxozchi va dehqonlar quvvatini ko‘tarish bilan industrlashtirish va kollektivlashuv asosida, paxta mustaqilligi uchun muvaffaqiyatli kurashishni, aksilinqilobchi kadrlarni ham jismonan va ruhan tor-mor keltirilishi haqida gapirib, Shamsiddin Badriddinovning otilishini 10 yillik qamoq bilan almashtirish uchun qaror qiladi [20].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sovet boshqaruvi davrida O‘zbekistondagi sud-huquq tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar faoliyati bolsheviklar tomonidan qattiq nazorat ostiga olingan. Milliy manfaatlar yo‘lida xizmat qilgan kadrlar bolsheviklarning tanqidi va tazyiqiga uchragan. Davlat boshqaruvning turli bo‘g‘inlarida faoliyat yuritayotgan kadrlardan kommunistik partiyaga sadoqatli bo‘lishni va uning yo‘l-yo‘riqlarini og‘ishmasdan bajarish talab qilingan. Bolsheviklarning jamiyat sinfiy dushmansiz yashay olmaydi degan g‘oyasiga muvofiq o‘zbek siyosiy elitasi vakillarini “qosimovchilik”, “badriddinovchilik”, “inog‘omovchilik” kabi aksilinqilobiy tashkilotlar tuzishda ayblaganlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Aksilinqilobiy millatchilik saboqlaridan ba’zi xulosalar // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 19-sentyabr. 220-son.
2. “Qosimovchilik” hali bitgan emas // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 24-iyul. 172-son.
3. Samarqand viloyat hokimligi arxivi, 30-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 63–66-varaqlar.
4. Samarqand viloyat hokimligi arxivi, 30-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 63-varaq.
5. Samarqand viloyat hokimligi arxivi, 30-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 63–64-varaqlar.
6. Samarqand viloyat hokimligi arxivi, 30-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 64-varaq.
7. Samarqand viloyat hokimligi arxivi, 30-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 66-varaq.
8. Maorif apparati va o‘quv yurtlarimizni yot mafkuralardan tozalaymiz // “Buxoro proletari” gazetasi. 1930-yil 14-oktyabr, 11-son.
9. “Qosimovchilik” qoldiqlari sud oldida // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 12-fevral. 35-son.
10. Komil Aliyev. Qora kursi qo‘zg‘aldi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 8-mart. 55-son.
11. “Qosimovchilik” qoldiqlari sud oldida // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 12-fevral. 35-son.
12. Komil Aliyev. Qora kursi qo‘zg‘aldi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 8-mart. 55-son.
13. To‘xtaqori – Qosimovchilikning mashhur soyasi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 2-mart. 50-son.

14. Komil Aliyev. Qosimovchilarning qanotlari qirqilajak // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 15-mart. 59-son.

15. Komil Aliyev. Qosimovchilarning qanotlari qirqilajak // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 15-mart. 59-son.

16. “Dushman kemasining eshkakchilari” ustidan hukm chiqarildi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1931-yil 15-mart. 59-son.

17. Sotsializm O‘zbekistonning proletar va kolxozchilarni millatchilik aksilinqilobining ildizlarini butunlay quritajaklar. Davlat qorolovchisi Katanyanning nutqi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1932-yil 8-yanvar. 7-son.

18. Sotsializm O‘zbekistonning proletar va kolxozchilarni millatchilik aksilinqilobining ildizlarini butunlay quritajaklar. Davlat qoralovchisi Katanyanning nutqi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1932-yil 8-yanvar. 7-son.

19. Badriddinov va sheriklari ustidan chiqarilgan hukm. Mal’un sinfiy dushmanga qarshi keskin zarba // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1932-yil 18-iyun. 139-son.

20. Badriddinov va sheriklari ustidan chiqarilgan hukm. Mal’un sinfiy dushmanga qarshi keskin zarba // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1932-yil 18-iyun. 139-son.